Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: 159.9.316.6:
ORCID: 373.2:37.09:005.336.2

MAXSUS IQTISODIY ZONALARNI FAOLIYATINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAHBARGA XOS IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING O'RNI.

Shonazarov Asror Maxmaisoyevich
Samarqand davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Annotsiya: Mazkur ilmiy maqolada yoritilishi nazarda tutilgan maxsus iqtisodiy zonalarni boshqarish va rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini ilmiy, nazariy va amaliy tomondan keng qamrovli ochib berish, orqali maxsus iqtisodiy zonalarni boshqarishda rahbarlarning boshqaruv mahorati, ishlab chiqarish hajmidan va xususiyatlaridan kelib chiqib sog'lom va barqaror ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish, mavjud resurslardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish, ishlab chiqarish hajmini va sifatini oshirishga erishish, har qanday soha singari ushbu sohasida faoliyat yurituvchi jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhit, jamoa a'zolarining o'z ichki salohiyatlarini to'la-to'kis namoyon etishi uchun shart-sharoit yaratish, jamoada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish rahbar shaxsining boshqaruv kompetensiyasiga egalik darajasini muntazam oshirib borish ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: Maxsus iqtisodiy zonalar, ishbilarmonlik muhitini yaratish, ishlab chiqarish sifati, iqtisodiy boshqaruv, ijtimoiy-psixologik mexanizm.

ЛИДЕРСТВО В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОСОБЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН РОЛЬ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК.

Аннотация: В данной научной статье рассматриваются социально-психологические механизмы управления и развития особых экономических зон путем всестороннего научного, теоретического и практического раскрытия создания психологической среды, налаживания рационального использования имеющихся ресурсов, достижения увеличения объемов и качества. производственная, социально-психологическая среда в коллективе, работающем в этой сфере, как и в любой другой сфере, реализующая внутренний потенциал членов коллектива. Планируется создать условия для его полного проявления, создать здоровую конкурентную среду в коллективе, регулярно повышать уровень управленческой компетентности руководителя.

Ключевые слова: Особые экономические зоны, создание деловой среды, качество производства, управление экономикой, социально-психологический механизм.

LEADERSHIP IN IMPROVING THE EFFICIENCY OF THE SPECIAL ECONOMIC ZONES THE ROLE OF SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS.

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

Annotation: This scientific article examines the socio-psychological mechanisms of the management and development of special economic zones through a comprehensive scientific, theoretical and practical disclosure. creating a psychological environment, establishing a rational use of available resources, achieving an increase in the volume and quality of production, the socio-psychological environment in the team operating in this field, as in any other field, fulfilling the internal potential of team members It is planned to create conditions for its full manifestation, to create a healthy competition environment in the team, and to regularly increase the management competence level of the leader.

Key words: Special economic zones, creation of business environment, quality of production, economic management, socio-psychological mechanism.

KIRISH. Yurtimizda amalga oshirilayotgan izchil islohatlarning barchasi millat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqi yo‘lida qilinayotgan amaliy ishlar sifatida gavdalanmoqda. Shu bilan bir qatorda amalga oshirilayotgan jiddiy islohatlardan kutilayotgan natija xalqni moddiy farovonligini ta’minlash, insonlarni yaxshi yashashlari uchun keng imkoniyatlar yarati berish, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, yoshlarni qo‘llab-quvatlash, ta’lim, ilm-fan, sport va sog‘liqni saqlash sohalarini yanada rivojlantirish, shahar va qishloqlarni yangicha qiyofaga olib chiqish, ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatini samaradorligini oshirish, tadbirkorlikka asoslangan korxona va tashkilotlar faoliyatini zamonaviylashtirish, maxsus iqtisodiy zonalarni jahon standartlariga mos keladigan, boshqaruv sohasini modiy va ma’naviy barqarorligini ta’minlash, boshqaruvchilarni ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini bugungi kun talablariga moslashtirish, ishchi-xodimlarni ishlab chiqarishdagi faolligini muntazam oshirib borish hamda ularga tegishli shart-sharoitlarni yaratib berish ilmiy tadqiqot ishini jamiyat hayoti uchun naqadar dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Olib berilgan ilmiy izlanishlar va ularning tahlil natijalaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, yuqorida keltirib o‘tilgan dolzarb muammolarni hal etish davomida tadqiqotning maqsadi belgilab olindi. Unga ko‘ra maxsus iqtisodiy zonalarni ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini mazmun-mohiyatini keng qamrovli asosda yoritib berish va ularni boshqarishning samarali yechimlarini izlab topish, joylarda faoliyat yuritayotgan maxsus iqtisodiy zonalarni faoliyatlarini ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini kengaytirish muhim hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va maqsdaidan kelib chiqib uning vazifalarini quyidagicha belgilab olindi. Ular:

1. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini davlat va jamiyat manfaatlariga mos keladigan holatda ravnaq topishi uchun zaruriy chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni yo‘lga qo‘yish.
2. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini samarali va sifatli boshqarishga qodir rahbar kadrlarning salmog‘ini muntazam oshirib borishni yo‘lga qo‘yish.
3. Maxsus iqtisodiy zonalarni boshqarish va ularni samaradorligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik takliflar, tavsiyalar va tegishli xulosalar ushlab chiqishga erishish.

Ilmiy tadqiqotning dolzarbligi, maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini jamiyat hayoti uchun ahamiyatini doimiy ravishda oshirib borish, ishlab chiqarish hajmini dunyo bozorlarining talabi va taklifidan kelib chiqib yanada kengaytirishga erishish, eksport va import hajmini muntazam oshirib borish, xorijiy investorlarni jalb qilgan holda ular uchun huquqiy himoya va imtiyozlar berib borishni yanada yangicha zamonaviy usul va vositalarini ishlab chiqish, ishchi-xodimlarga keng qamrovli shart-sharoitlar yaratib berish orqali ishbilarmonlik muhitini yaratish, maxsus iqtisodiy zonalarni

raqobatbardoshlgini oshirish bugungi kun uchun aniq belgilab olinishi kerak bo‘lgan talablardandir.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilmiy va nazariy qarashlar hamda ilmiy adabiyorlar tahlillaridan foydalangan holda rahbar shaxsi va boshqaruv faoliyatini tashkil etishda shaxs individual-psixologik xususiyatlari bilan bir qatorda boshqaruv jarayoning samaradorligiga qaratilgan ijtimoiy omillar, ya’ni jamoaviy hamkorlikdagi faoliyat, boshqaruv uslubi, jamoadagi shaxslararo munosabatlar tizimi, ijtimoiy kognitiv xususiyatlar, axloqiy ongning rivojlanganligi ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan yoritib berganlar;

“maxsus iqtisodiy zonalarni boshqarish jarayoni samaradorligini oshirishda rahbar-xodim-jamoa”dagi o‘zaro munosabatlariga kirishishda kognitiv qobiliyatlarini yuzaga chiqishi, zehnlilik, keng qamrovli dunyoqarashga egalik va ijtimoiy mas’uliyat muloqotga kirishuvchanlik, ijtimoiy normalarni his eta bilishi, shaxsga xos individual psixologik xususiyatlarning va sifatlarni differensial ta’siri natijasida aniq “vaziyatga yo‘nalganlik”ni muloqotning interaktiv tomoni orqali intensivlashuviga asoslanib, boshqaruvchilardagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini yoritilishi ish stajiga bog‘liq holda dinamik rivojlanishi keng qamrovli yoritib berilgan;

boshqaruv jarayoni tashkil etishda shaxslararo munosabatlarda rahbardagi empatiya, refleksiya, identifikatsiya, riyal baho bera olish kabi ijtimoiy persepsiya mexanizmlarini integrativ namoyon bo‘lishiga ko‘ra, empatiyaning ratsional va intuitiv kanalini ijtimoiy faollik hissi bilan uyg‘un rivojlanishiga asoslanib, rahbarlarda ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining mazmum-mohiyati va ilmiy-amaliy ahamiyati ijtimoiy-affektiv komponenti ustuvor harakterga ega ekanligi dalillangan;

maxsus iqtisodiy zonalarnining samarali boshqarish mobaynida boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoniga bevosita ta’siri natijasida shaxs integral tashkiliy qobiliyatlarini markazga qo‘yish tamoyiliga muvofiq transformatsiyalanishiga ko‘ra, maxsus iqtisodiy zonalarni boshqaruvchi rahbarlarning ijtimoiy-psixologik sifat va xususiyatlarini reprezentatsiyalanish imkoniyati kuchayishi aniqlanib, ularning umumiy xususiyatlari yoritib berilgan;

maxsus iqtisodiy zonalarnining boshqaruv subyektlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini samaradorligini oshirish va rivojlantirish muhimligiga ko‘ra, refleksiv empatiyani hissiyotlarni identifikatsiyalash ko‘nikmasini kuchaytirish orqali ularni shakllantirishga qaratilgan “Rahbar va jamoa munosabatlari” mualliflik motivatsion trening dasturini qo‘llash va ularni amaliyotga kiritish zarurati asoslangan.

Shaxs va jamoa orasidagi munosabatlarni tartibga solish, jamoani boshqarish masalalari eng qadimgi qo‘l yozmalardan hisoblangan “Avesto” da ham o‘ziga xos tarzda aks etilgan. “Avesto” da keltirilishicha, jamoani boshqargan shaxs “kavi” yoki “sastra” deb nomlangan. Lekin jamoat ishlarini boshqarishda “varzanopati”, ya’ni oqsoqollar kengashiga murojaat qilingan. Zardushtiylik dini ta’limotiga ko‘ra, har bir kavi iymonning uch aqidasiga tayanmog‘i lozim, ya’ni fikrlar sofligi; so‘zning sobitligi; amallarning insoniyligi. “Avesto”da keltirilgan g‘oyalarga muvofiq oqsoqollar kengashi a’zolari “bergan so‘zning uddasidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiq va shartnomalarga qat’iy amal qilish, qarzni o‘z vaqtida to‘lash, aldamchilik va xiyonatdan holi bo‘lishi” darkor [2; B.40-41]. Mazkur keltirilgan fikrlardan ko‘rishimiz mumkinki, rahbar jamoani samarali boshqarishi uchun unda eng avvalo ijtimoiy kommunikativ kompetentlik yuqori bo‘lish kerak ekan. Oqsoqol yoki rahbar jamoaga aytayotgan so‘zi, gapiga ehtiyotkorlik bilan oqilona yondashishi, jamoa bilan konstruktiv

munosabatlarni o‘rnatish qobiliyatiga ega bo‘lishi, vaziyatni to‘g‘ri baholay olishi boshqaruv jarayonining samarali bo‘lishiga ta’sir etadi.

Shaxs va jamiyat munosabatlarini boshqarish, odil hukmdor, adolatli rahbar qanday bo‘lishi masalasi Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Xasan ibn Ali Tusiy, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi buyuk allomalar asarlarida uchratish mumkin.

Abu Nasr Farobiy Sharqda ilk bor “davlat”, “jamiyat”, “boshqaruv” singari ijtimoiy tushunchalarni falsafiy jihatdan talqin qilgan. U o‘zining asarida: “Har bir inson tabiatdan shunday tug‘ilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, ammo bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi. Ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi. Bunday jamoa a’zolarining faoliyati bir butun holda, ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni etkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko‘paydilar va erning aholi yashaydigan qismiga o‘rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi”, deb e’tirof etgan. Shuningdek, Farobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida fozil shahar ijtimoiy uyushishning yetuk shakli, insoniyat kamolotga erishuvining zaruriy vositasi, deb hisoblab, dunyoda yagona inson jamoasini tuzish haqida orzu qilgan. Mutafakkir o‘zining ijtimoiy-psixologik qarashlarida “fozil shahar” davlat qurilishi muammolariga e’tiborini qaratganligini, buni jamoa boshqaruvi deb bemalol atasa bo‘lishini, zotan, fozil shahar – fozil jamoa, unda yashovchilarning tabiatiga mos birlashma – uyushma bo‘lgandagina boshqaruv va birlashuvning jamoa tizimiga ega bo‘lishini ta’kidlaydi [5; B. 122-123].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Sharq allomalari asarlarida tahlil qilingan rahbarning jamoadagi shaxslararo munosabatlar tizimida o‘z qo‘l ostidagilarga ta’sir eta olish qobiliyati, ijtimoiy vaziyatlarda qo‘l ostidagilarning qobiliyati va iqtidoriga, emotsional holatiga ko‘ra muloqot qilishi, muloqot madaniyatiga amal qilishi kabilar aynan ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining etnopsixologik tomonlari keng qamrovli keltirib o‘tilganligi ushbu ilmiy tadqiqot ishini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib maxsus iqtisodiy zonalarni boshqarish va zamonaviy rahbar qiyofasini yaratish masalalariga alohida to‘xtalib o‘tamiz. Shu o‘rinda maxsus iqtisodiy zona haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Maxsus iqtisodiy zona – tegishli hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun chet el investitsiyalari va mahalliy investitsiyalarni, yuqori texnologiyalar hamda boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimga ega bo‘lgan hudud.

Jahon miqiyosida olib qaraydigan bo‘lsak davlat va jamiyatning rivojlantiruvchi kuch bu albatta oqilona boshqaruv hamda iqtisodiy samaradorlik hisoblanadi. Shu boisdan ham tejamkorlikka asoslangan to‘g‘ri boshqaruv aqliy qobiliyatni Mamlakatimizda maxsus iqtisodiy zonalarning faoliyatini keng qamrovli takomillashtirish va ularni sifat-samaradorligini oshirish ayni paytda hal etilishi lozim bo‘lgam dolzarb masalalardan biri hisoblanib qolmoqda. faoliyatini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, xalqimizning hayot darajasi va sifatini yanada oshirishga qaratilgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan yaqindan tanishish, xalq bilan uchrashish va muloqot qilish maqsadidagi hududlarga tashriflarida birinchi navbatda hududlar iqtisodiyotidagi o‘sish nuqtalarini belgilash va shu orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘tgan yil misolida olab qaraydigan bo‘lsak, 2023 yilda 14 ta maxsus iqtisodiy zona tuzilishi rejalashtirilgan edi. Shunda

ularning umumiy soni 36 taga yetadi. Bu zonalardagi tadbirkorlar 10 yilgacha mol-mulk, yer, suv resurslari va foyda soliqlaridan ozod qilingan. Prezidentning "Yirik maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror loyihasi e'lon qilindi. Qarorda 2023-yil oxiriga qadar biznes uchun barcha sharoit va infratuzilmaga ega har bir viloyatda 100 tadan korxonalar uchun yirik maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish choralarini ko'rish ko'zda tutilgan.

Iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishda maxsus iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari faoliyati juda muhim hisoblanadi. Ma'lumot uchun keltirib o'tadigan bo'lsak, O'zbekistonning 2024-yilgi iqtisodiy rivojlanish prognozi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIMning o'sishi 5,5%ni tashkil etishi kutilmoqda.

Osiyo Taraqqiyot Banki "Osiyo-Tinch okeani mintaqasi uchun iqtisodiy prognozlar: 2024-yil aprel" navbatdagi hisobotini chop etdi. Ushbu hisobotga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyoti 2023-yilda sanoat va qishloq xo'jaligidagi jadal sur'atlar bilan qo'llab-quvvatlangan ajoyib o'sishni ko'rsatdi. Biroq, ekspertlar turli omillar, jumladan, boshqariladigan narxlarning oshishi va tarkibiy islohotlar tufayli kelgusi yillarda o'sish sur'atlarining sekinlashishini bashorat qilmoqda. Bu esa kelgusi yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi, albatta.

O'zbekistonda shu yilning 1-yanvaridan "2024-yilgi davlat budjeti to'g'risida"gi qonun kuchga kirdi. Shu asosda O'zbekistonning 2024-2026-yillar uchun iqtisodiy o'sish prognozi belgilab olindi. Unga ko'ra, 2024 yilda YaIM-ning o'sish sur'ati 5,6-5,8 %ni, 2025 yilda 6,2 %ni, 2026 6,4 %ni tashkil etish oldindan belgilab olindi.

Darhaqiqat, iqtisodiy rivojlanish ham, ijtimoiy barqarolashuv ham albatta boshqaruv jarayonidagi kreativ va kompetentlik darajasiga bog'liq holda takomillashib, qamrovi kengayib samaradorlikka erishib borishga erishiladi.

Ma'lumot o'rnida aytish joiz, so'nggi yillarda qonunchilikni takomillashtirish va qulay investitsiya muhitini yaratish bo'yicha ko'rilayotgan muhim chora-tadbirlar natijasida 13 ta hududda 25 ta maxsus iqtisodiy zona faoliyat olib bormoqda. Ularda umumiy qiymati 47,1 trln so'mlik 650 ta loyiha amalga oshirildi. Bularnig barchasi raqamli iqtisodiyotni jamiyat hayotiga joriy etilishi bilan bog'iq jarayonlarni maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatiga jalb etishni o'zida mujassamlashtiradi.

Maxsus iqtisodiy zonalarni ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini keng qamrovli yoritishda quyidagilar yirik maxsus iqtisodiy zonalarning asosiy yo'nalishlari va faoliyati natijadorligini mazmun-mohiyatini o'ziga xos jihatlari etib belgilanadi:

- ✓ maxsus iqtisodiy zonalarni ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini keng qamrovli samaradorligini oshirishda boshqaruv subyektlarinng rahbarga xos qobiliyatlarini muntazam rivojlantirib borish;
- ✓ tashqi bozorlarda talab etilayotgan va import o'rnini bosuvchi, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil qilish uchun to'g'ridan to'g'ri xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish;
- ✓ viloyat ishlab chiqarish va resurs salohiyatlaridan kompleks hamda samarali foydalanishni ta'minlash;
- ✓ mahalliy xomashyo va materiallar negizida mustahkam kooperatsiya aloqalarini o'rnatish hamda maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari o'rtasida va umuman respublikada sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish asosida yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish;
- ✓ viloyat ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan samarali foydalanish asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta ishlashni

chuqurlashtirish va ularning eksport hajmini oshirish;

✓ logistika xizmatlari ko‘rsatish zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish, sanoat sohasidagi ishlab chiqarish subyektlariga ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksportini tashkil etishda ko‘maklashish;

✓ ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni standartlashtirish, sertifikatlashtirish va markirovka qilish bo‘yicha xalqaro standartlarga muvofiq ilmiy-ishlab chiqarish markazlarini tashkil etish va ularning xulosalari xalqaro darajada e’tirof etilishini ta’minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish;

✓ maxsus iqtisodiy zonalar soha kadrlariga bo‘lgan joriy va istiqboldagi ehtiyojlaridan kelib chiqib, yuqori malakali boshqaruvchi mutaxassislarni tayyorlashni tashkil etish, ularning maxsus iqtisodiy zonalarda joylashgan hududdagi tashkilotlarda ishlab chiqarish amaliyotini o‘tashida qatnashish.

Mamlakatimizda hududlarni kompleks iqtisodiy rivojlantirish orqali aholi bandligi va daromadliligini ta’minlash hamda turmush farovonligini oshirish masalasiga strategik yo‘nalish sifatida e’tibor qaratilib, so‘nggi yillarda izchil islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Olib berilgan ilmiy izlanishlar va umumiy tahlillardan kelib chiqib ta’kidlaydigan bo‘lsak, maxsus iqtisodiy zonalarning faoliyatini samaradorligini oshirish va sifatli boshqarishga yo‘naltirilgan iqtisodiy, ijtimoiy hamda boshqaruvga xos rivojlantiruvchi mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishning psixologik xususiyatlarini mazmun-mohiyati belgilab olindi: (1-jadvalda keltirib o‘tilgan)

1-jadval.

IQTISODIY RIVOJLANTIRUVCHI MEXANIZIMLAR:	**IJTIMOIY-PSIXOLOGIK RIVOJLANTIRUVCHI MEXANIZIMLAR:**	**BOSHQARUVNI RIVOJLANTIRUVCHI MEXANIZIMLAR:**
Ilmiy, nazariy va amaliy tomondan iqtisodiy bilimdonlikka asoslangan ijodiy tafakkurni rivojlantirish	Ijtimoiy muammolarni tahlil qila olishni va ishchi-xodimlarning ruhiy holatini his eta olish qobiliyatlarini rivojlantirish	Rahbarlarga xos boshqaruv uslublari va vositalaridan aniq to‘g‘ri foydalanishni rivojlantirish
Iqtisodiy ong, iqtisodiy dunyoqarsh va iqtisodiy tejamkorlikka bo‘lgan munosabatini hamda iqtisodiy hamkorlikka doir sifatlarni rivojlantirish	Ijtimoiy normalarni his etish orqali, boshqalar bilan insoniy munosabatlarga kirisha olish qobiliyatlarini rivojlantirish	Boshqaruvchilargi xos tashkilotchilik, kreativlik, bilimdonlik, oqilonalik, tashabbuskorlikni sifatli va to‘g‘ri boshqara bilish qobiliyatini rivojlantirish
Tizimli tahlil etish asosida iqtisodiy muammolarni aniqlash, ularni tahlil qilish, hamda ularni o‘z vaqtida hal etishga bo‘lgan talabchanlikni rivojlantirish	Hamkorlar bilan o‘zaro aloqadorlikni samarali tashkil etishda ularning individual psixologik xususiyatlarini bilishga bo‘lgan qobiliyatlarini rivojlantirish	Barqaror boshqaruv funksiyalarni yaratish qoidalari amal qilgan holda boshqaruv qarorlarini amiq va maqsadli qabul qila olish qobiliyatini rivojlantirish
Iqtisodiy rivojlangan davlatlarning andozalariga mos holatda bozor talablari, takliflar va bozor tilini bilishga	Ishchi-xodimlar jamoasini faoliyatini tahlil qilish va tegishli vazifalarni ularnig zimmalariga yuklashni	Jahon standartlariga mos keladigan boshqaruv mexanizimlaridan samarali foydalanishga bo‘lgan

o'rgatishni rivojlantirish	bilishga bo'lgan qobiliyatini rivojlantirish	munosabatni rivojlantirish
Iqtisodiy madaniyat, iqtisodiy salohiyat va iqtisodiy samaradorlikka erish olish qobiliyatlarini rivojlantirish.	Ijtimoiy ong, mas'uliyat, savodxonlik va tafakkurni psixologik asoslarini o'zlashtirisga bo'lgan qobiliyatini rivojlantirish.	Rahbarlarga xos fazilatlarni hamda bilim, ko'nikma va tajribalarga asoslangan qobiliyatlarni rivojlantirish.

Yuqorida keltirib o'tilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqadigan bo'lsak, har qanday rivojlangan davlat va jamiyat o'z rivojlanish yo'lidan borgani singari mamlakatimizning ham o'z taraqqiyot yo'li mavjud. Maxsus iqtisodiy zonalarni rivojlantirish uchun faqatgina boshqaruvchlarining faolligi yetarli emas. Ularga keng qamrovli imkoniyatlar, kerakli shart-sharoitlar va faoliyatlarini samaradorligini oshirishga yordam beradigan mas'uliyatli ishchi-xodimlar ham kerak bo'ladi, abatta.

XULOSA qilib aytadigan bo'lsak, chin ma'noda rahbarning insoniyligi uning halolligi, pokligi va yaxshi hulq egasi bo'lib, ta'lim-tarbiya topganligi bilan o'lchanadi. Maxsus iqtisodiy zonalarni boshqarishga keladigan bo'lsak, boshqaruvchilarning hayotiy tajribalari va o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalari boshqaruv faoliyatlarida alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun ham ota-bobolarimiz azal-azaldan vatanni sevib, halol va pok yashashga harakat qilgan. Bugungi kunda ham ijtimoiy normalarga amal qilishga va yoshlarimizning vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda bunday amaliy ishlar hayotimizning yaxshilanishi va insoniyligimizning bosh mezoni sifatida qaralmoqda.

Iqtisodiy subyekt boshqaruvchilariga keladigan bo'lsak, o'z faoliyatlari davomida qabul qilinishi zarur bo'lgan qarorlarni qabul qilishda muayyan ishlab chiqarish holatini tahlil qilishdan kelib chiqishi, iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, texnikaviy va boshqa ijtimoiy qonunlarning amal qilishini hisobga olishi, hozirgi zamon fan-texnika yutuqlari negizida qabul qilinishi maqsadli va aniq bo'lishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O.E. Hayitov. – Boshqaruv psixologiyasi: Darslik. – T.: «Istiqlol» nashriyoti, 2021. - 234 b.

2. K.B.Axmedjanov. A.X.Xolov. Yosh rahbar kadrlarda samarali qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish.O'quv qo'llanma // Toshkent. -"Tafakkur qanoti", 2020. 96 bet

3. To'ychiyeva S. Boshqaruv texnologiyalari. O'quv qo'llanma // Toshkent. - "Navro'z" nashriyoti, 2020. 148 bet

4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. https://stat.edu.uz/., lex.uz.

5. M.Shonazarov. Kasb psixologiyasi. "O'quv qo'llanma" – Samarqand. SamDU Nashr-matbaa markazi, 2023 yil, 337 bet.

6. A.M.Shonazarov. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini boshqarish va ularni samaradorligini oshirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari "Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal, ISSN 3030-3710 (P), ISSN 3030-3095 (E), (№4, 2024) http//:buxpxti.uz 180-185 betlar.

7. A.M.Shonazarov. Maxsus iqtisodiy zonalarni boshqarishning uslubiy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari "Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal, ISSN 3030-3710 (P), ISSN 3030-3095 (E), (№5, 2024) http//:buxpxti.uz 87-94 betlar.